

PUL-KREDIT SIYOSATINING ASOSIY INSTRUMENTLARI VA ULARNING TA'SIR MEXANIZMLARI

Ismoilov Muhammadqodir Ulug'bek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

4-bosqich kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari, ularning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari hamda Markaziy bankning bu boradagi roli keng yoritilgan. Xususan, majburiy zahiralar normasi, qayta moliyalashtirish stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari, deposit siyosati va valyuta siyosati vositalarining iqtisodiy o'sish, inlyatsiya darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilingan. Maloqa O'zbekiston iqtisodiyoti misolida pul-kredit siyosatining amaliy jihatlarini ham ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Markaziy bank, pul-kredit siyosati, monetar siyosat, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, pul bozori, majburiy zahiralar, qayta moliyalashtirish stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari, depozit siyosati, valyuta siyosati.

ОСНОВНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНОЙ ПОЛИТИКИ И МЕХАНИЗМЫ ИХ ВОЗДЕЙСТВИЯ

Аннотация: В данной статье подробно освещены основные инструменты денежно-кредитной политики, механизмы их влияния на экономику, а также роль Центрального банка в этом процессе. В частности, проанализировано воздействие таких инструментов, как норма обязательных резервов, ставка рефинансирования, операции на открытом рынке, депозитная политика и валютная политика на экономический рост и уровень инфляции. Также рассматриваются практические аспекты реализации денежно-кредитной политики на примере экономики Узбекистана.

Ключевые слова: Центральный банк, денежно-кредитная политика, монетарная политика, инфляция, экономический рост, денежный рынок, обязательные резервы, ставка рефинансирования, операции на открытом рынке, депозитная политика, валютная политика.

THE MAIN INSTRUMENTS OF MONETARY POLICY AND THEIR MECHANISMS OF INFLUENCE

Abstract: This article provides a comprehensive overview of the main instruments of monetary policy, the mechanisms through which they influence the economy, and the role of the Central bank in this context. In particular, it analyzes the impact of tools such as the reserve requirement ratio, refinancing rate, open market operations, deposit policy and foreign exchange policy on economic growth and inflation levels. The article also highlights the practical aspects of monetary policy implementation using the example of Uzbekistan's economy.

Keywords: Central bank, monetary policy, inflation, economic growth, money market, reserve requirements, refinancing rate, open market operations, deposit policy, foreign exchange policy.

Kirish

Jahon amaliyotida deyarli barcha Markaziy banklar faoliyatining asosiy maqsadi milliy valuta barqarorligini ta'minlash va narxlar barqarorligiga erishish hisoblanadi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati nafaqat pul taklifi va foiz stavkalariga, balki iqtisodiy rivojlanishning umumiy darajasi, ya'ni mamlaktimizdagi har bir fuqaroning turmush farovonligiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunga kelib dunyo markaziy banklari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank faoliyatining bosh mezonibular narxlar barqarorligi, inflyatsiyani nazorat qilish samaradorligidir. Hozirda ko'pchilik tomonidan umumiy qabul qilingan nuqtai nazar: narxlar barqarorligi, iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlashdir. Mamlakatda

yuqori inflyatsiya uzoq muddat davr davom etishi – iqtisodiyot uchun salbiy oqibatlariga olib keladi.

Pul-kredit siyosatning asosiy maqsadi iqtisodiyotda inflyatsiya darajasini pasaytirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va pul bozorida barqarorlikni ta'minlashdir. Bu siyosatning samaradorligi asosan Markaziy bankning amaliyotda qo'llayotgan instrumentlariga bog'liq. Har bir instrumentning o'ziga xos ta'sir mexanizmi mavjud bo'lib, ular iqtisodiy o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunish, samarali siyosat olib boorish uchun zarur.

Adabiyotlar sharhi

Pul-kredit siyosati markaziy banklar tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida olib boriladigan siyosatdir. Ilmiy adabiyotlarda bu siyosatning asosan ikki shakli ko'rsatiladi: ekspansion(yumshoq) va restriktiv(qattiq) siyosat. Mashhur iqtisodchi olimlar Mishkin F., Taylor J. pul-kredit siyosatining nazariy asoslari, uning instrumentlarini chuqur o'rganib o'z tajribalarni keltirgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari va ularning makroiqtisodiy ko'rsatgichlarga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, deskriptiv, empirik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Pul-kredit (monetar) siyosati – bu narxlar barqarorligi, aholining to'la bandligi va ishlab chiqarishning real hajmi o'sishini ta'minlash maqsadida muomaladagi pul miqdoriga ta'sir etuvchi davlatning iqtisodiy siyosatidir. Pul-kredit siyosatining iqtisodiy va tashkiliy asoslarini o'ziga xosligi uning obyektlari va subyektlarining xususiyatlari bilan belgilanadi. Pul-kredit siyosatining *obyektlari* pul bozorida talab va taklifdir. Pul-kredit siyosatining *subyektlari* deganda, eng avvalo Markaziy bank va u bilan o'zaro harakat qiluvchi, moliyaviy

tizimning ishlashida qatnashuvchi banklar va boshqa pul-kredit boshqaruvi organlari tushuniladi.

Pul-kredit siyosatining prinsiplari, ya'ni markaziy bank siyosatining majburiy bo'lgan asosiy normalari va qoidalariga quyidagilar kiradi¹:

- pul-kredit siyosatining aniq nominal langarini tanlash;
- markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi;
- markaziy bankning jamiyat oldidagi javobgarligi va hisobdorligi;
- pul-kredit siyosatining axborot ochiqligi (shaffofligi).

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida pul taklifi bank tizimi tomonidan ta'minlanadi. Markaziy bank muomalaga turli qiymatdagi qog'oz pullar va tangalar chiqaradi. Tijorat banklari esa pul mablag'lari oqimini jamg'arma egalaridan qarz oluvchilarga yetkazuvchi moliyaviy vositachilardir. Agar tijorat banklar o'z mijozlariga qarz bersa pul massasi ko'payadi va aksincha mijozlar tijorat banklardan olgan qarzlarini qaytarishsa kamayadi. Pul taklifi deganda mamlakat iqtisodiyotida muomalada bo'lgan pul miqdori tushuniladi. Pul taklifi hajmini bilish (o'lchash) uchun quyidagi agregatlardan foydalaniladi:

- $M0$ – Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan naqd pullar;
- $M1 = M0 + \text{banklardagi talab qilib olinadgan depozitlar} + \text{chekli omonatlar} + \text{yo'l cheklari}$;
- $M2 = M1 + \text{muddatli depozitlar} + \text{jamg'arma depozitlari}$;
- $M3 = M2 + \text{depozit sertifikatlari} + \text{jamg'arma sertifikatlari} + \text{davlatning qimmatli qog'ozlari}$.

Pul miqdorini o'lchashda muammo shundan iboratki, zamonaviy iqtisodiyotda turli xil aktivlar bir vaqtning o'zida u yoki bu darajada pulning barcha uchta funktsiyasini (muomala vositasi, qiymat o'lchovi, jamg'arish vositasi) bajarishidir. $M1$ to'lov vositasi sifatidagi pulning an'anaviy tarifiga eng yuqori darajada mos keluvchi aktiv hisoblanadi. $M2$ va $M3$ belgilangan muddatda

¹ Моисеев С. Денежно-кредитная политика: теория и практика. — М.: Московская финансово-промышленная академия.

qaytariladigan o'rta va uzoq muddatli omonatlarni ham o'z ichiga olganligi sababli, ulardan istalgan paytda foydalanish imkoni, faqatgina foiz ko'rinishdagi jarimalar to'lash hisobidan bo'lishi mumkin.

Monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari



1-rasm. Monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari

Monetar siyosatning asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, valyuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Iqtisodiy siyosatni muhokama qilishda savol yuzaga keladi - hokimiyatlar oldindan belgilangan qoidalarga muvofiq harakat qilishlari kerakmi yoki vaziyatga qarab qaror qabul qilishlari kerakmi. Iqtisodiyot nazariyasida "qoidalarga asoslangan" siyosat va hokimiyat qarorlar qabul qilish erkinligiga ega bo'lgan ixtiyoriy siyosat o'rtasida farqlanadi. Pul-kredit siyosatida markaziy bankning oldindan belgilangan statsionar qarorlar qabul qilish tartibi bo'yicha xatti-harakatlari "pul-kredit siyosati qoidasi" deb ataladi. Pul-kredit siyosati qoidasi markaziy bankning javob funksiyasi bo'lib, unga ko'ra pul-kredit siyosati vositasini qo'llash asosiy iqtisodiy o'zgaruvchilarning o'zgarishiga javoban amalga oshiriladi.

Pul-kredit siyosatini olib borishda Markaziy bank o'zining muayyan maqsadlariga ega bo'ladi. Bu maqsadlarga erishish uchun u pul-kredit

siyosatining instrumentlaridan foydalanadi. Muammo shundaki, markaziy bank o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun o'zi bevosita nazorat qiladigan instrumenlardan qanday foydalanish kerakligida. Chunki eng so'nggi maqsadlar bilan instrumentlar orasida aniq prognoz qilib bo'lmaydigan bir qancha bosqichlar bor. Shuning uchun Markaziy bank bevosita o'zi nazorat qilolmaydigan, ammo o'zi intiladigan maqsadlarga eng yaqin makroiqtisodiy o'zgaruvchilar – oraliq mo'ljallarni belgilaydi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari

Shu narsa xarakterliki, hozirgacha pul-kredit vositalarining turkumlanishi borasida yagona bir yo'nalish mavjud emas. Lekin, shu bilan birga ko'pchilik iqtisodchi olimlar quyida keltirilgan vositalarni asosiy pul-kredit siyosati instrumentlari sifatida qayd etadilar:

1. Markaziy bankning majburiy zahira siyosati;
2. Markaziy bankning qayta moliyalash siyosati;
3. Ochiq bozor siyosati.
4. Markaziy bankning depozit siyosati.
5. Valyuta siyosati.

Mazkur usullar jahon banklari amaliyotida tan olingan asosiy usullar hisoblanib, ularning qo'llanishi har bir davlatda turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, AQSH da ko'proq ochiq bozordagi usullar qo'llanilsa, Germaniyada ko'proq majburiy zaxiralar qo'llaniladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy bankining muomaladagi pul massasini tartibga solishda asosan **majburiy zaxiralar** instrumentidan foydalanilmoqda. Majburiy zaxiralar tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda alohida ochilgan hisobvaraqa majburiy tartibda depozitga o'tkaziladigan pul mablag'laridir. Markaziy bank boshqaruvi tijorat banklarining milliy va chet el valyutalaridagi majburiyatlariga nisbatan majburiy zaxira talablarini belgilaydi. Majburiy zaxiralar tijorat banklarining majburiyatlari valyuta turidan qat'iy nazar, faqat milliy

valyutada shakllantiriladi.

1-jadval.

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralash
me'yorlari²**

Majburiy zaxiralash me'yorlari (2025 yil 1 apreldan)	
Majburiyat turi	Majburiy zaxiralash me'yorlari
Yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari	4 foiz
Yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari	10,5 foiz

Majburiy zaxiralash me'yorlarini o'zgartirish orqali Markaziy bank tijorat banklarining kredit faoliyatiga va foiz stavkalariga ta'sir qiladi.

Pul-kredit siyosatining instrumenti sifatida majburiy zaxiralar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- bank tizimining likvidliligiga ta'sir etish funksiyasi;
- tijorat banklarining kredit emissiyasini cheklash funksiyasi;
- tijorat banki bankrot bo'lganda, uning majburiyatlari bo'yicha hisoblashish funksiyasi.

Markaziy bank majburiy zaxiralar miqdorini o'zgartirish yo'li bilan bank tizimining likvidliligiga ta'sir qila oladi. Majburiy zaxira miqdorlarining tez-tez o'zgarib turishi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar uchun xarakterli hol hisoblanadi. Buning asosiy sababi, inflyatsiya jarayonlarining nisbatan yuqoriligi va xalq xo'jaligini strukturaviy qayta qurish bilan bog'liq tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida muomaladagi pul massasining ko'payib ketishidir.

Shunday qilib, majburiy zaxiralar me'yorining miqdori qanchalik kichik bo'lsa, muomaladagi pul massasining o'sishi shunchalik sezilarli bo'ladi. Bu esa,

² <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/standards-required-reserves>

Markaziy bank tomonidan pul massasining o'sishini nazorat qilishning zaiflashayotganligini bildiradi.

Markaziy bankning **qayta moliyalashtirish siyosati** deganda, Markaziy bank tomonidan kredit institutlarining veksellarni sotib olish shakli va qimmatli qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlash tushuniladi.

Markaziy bankning qayta moliyalashtirish siyosatini quyidagi ko'rinishlari mavjud:


1. Qayta moliyalashtirish stavkasi Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ularning ixtiyoridagi trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.
2. Tijorat banklari Markaziy bankdan o'zlarining portfelidan qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish orqali kredit olishi - bu lombard krediti hisoblanadi. Lombard kredit foiz stavkasi - lombard stavkasi hisoblanadi. Lombard stavkasi har doim hisob stavkasidan ikki-uch punkt yuqori yuradi.

Markaziy bank boshqaruvi Qarori bilan 2020 yilning 1 yanvar sanasidan pul bozoridagi foiz stavkalarini tartibga solish maqsadida Markaziy bankning asosiy stavkasi joriy etilgan va pul-kredit operatsiyalari bo'yicha asosiy mo'ljal ko'rsatkich sifatida qayta moliyalashtirish stavkasi o'rniga foydalanish belgilangan. Qayta moliyalashtirish stavkasi amaliyotda o'z kuchini saqlab qolgan va asosiy stavka darajasiga tenglashtirilgan.

Asosiy stavka pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti bo'lib, inflyatsiyaning barqaror 5 foizlik targeti doirasida shakllanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul-kredit sharoitlarini belgilab beradi.

Markaziy bank asosiy stavkasining oshirilishi iqtisodiyotdagi foiz stavkalarini oshiradi. Yuqori foiz stavkalari jamg'arish vositalarining jozibadorligini oshiradi hamda qarz vositalariga talabni kamaytiradi. Bunday sharoitda bozor ishtirokchilari ko'proq jamg'arib, kamroq sarflashda davom etadi. Tovar va xizmatlar taklifi o'zgarmagan holda ularga bo'lgan talabning pasayishi iqtisodiyotdagi narxlarining barqarorlashuviga va natijada inflyatsiya darajasining

pasayishiga xizmat qiladi. Aksincha, inflyatsiya prognoz davrida targetidan pasayib ketishi ehtimoli yuqori bo'lgan taqdirda asosiy stavka pasaytiriladi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasi dinamikasi³

Qayta moliyalashtirish siyosatidan ko‘zlangan asosiy maqsad - tijorat banklari Markaziy bank tomonidan beriladigan kreditlarning berilish shartlarini o‘zgartirish yo‘li bilan pul bozori va kapital bozorining holatiga ta’sir qilishdir. Shunisi diqqatga sazovorki, qayta moliyalashtirish qimmatli qog‘ozlarni garovga olmasdan turib ham amalga oshirilishi mumkin.

Qayta moliyalashtirish siyosatining an’anaviy vositalaridan keng ko‘lamda foydalanish yuzaga kelgunga qadar, ma’muriy mazmundagi ayrim pul-kredit siyosatining vositalaridan foydalanishga zaruriyat seziladi. Kreditlash limitlarini joriy qilish yo‘li bilan pul massasi va foiz stavkalarining keskin o‘shishiga barham berish mumkin.

Markaziy bankning monetar siyosatini asosiy instrumentlaridan yana biri bu – Markaziy bankning **ochiq bozordagi operatsiyalaridir**. Markaziy bankning ochiq bozor siyosati shundan iboratki, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talab va taklifni tartibga solib, bunda tijorat banklarining qiziqishlarini uyg‘otishdir.⁴ Ochiq

³ <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/refenancing-rate>

⁴ Butikov “Qimmatli qog‘ozlar bozori”. T.: Konsauditinform 2001 y.

bozordagi operatsiyalar deganda Markaziy bankning o'z mablag'lari hisobidan ochiq bozordan qimmatli qog'ozlarni sotib olishi va sotishi tushuniladi. Ochiq bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalarda katta miqdordagi xilma-xil qimmatli qog'ozlar ishtirok etadi. Ulardan eng asosiylari sifatida Davlat xazina majburiyatlari, Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO), sanoat obligatsiyalari hamda Markaziy bank tomonidan belgilangan boshqa qimmatli qog'ozlarni ko'rsatish mumkin.

Ochiq bozor siyosatini amalga oshirishning keng tarqalgan vositasi Davlat qimmatli qog'ozlari bilan ikkilamchi bozorda amalga oshiriladigan operatsiyalardir.

Markaziy bank ochiq bozorda operatsiyalar amalga oshirish yo'li bilan bank tizimining zaxiralariga ikki usul bilan ta'sir qilishi mumkin:

1. Agar Markaziy bank kredit institutlarining ixtiyoridagi pul massasini ko'paytirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda u, ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi bo'lib qatnashadi. Bunda u qimmatli qog'ozlarga qat'i belgilangan kurs o'rnatishi va kurs o'sha darajaga yetishi bilan taklif qilingan barcha qimmatli qog'ozlarni sotib olish yo'lidano foydalanishi mumkin. Yoki taklif qilingan paytdagi kursidan qat'i nazar, ma'lum turdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish miqdorini belgilashi mumkin.

2. Agar Markaziy bank bank tizimining zaxiralarini kamaytirishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, unda bozorda sotuvchi bo'lib ishtirok etadi. Bunday holatda ham Markaziy bank quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

Markaziy bank ma'lum kursni e'lon qilishi va qimmatli qog'ozlarning kursi o'sha darajaga yetishi bilan istalgan miqdordagi qimmatli qog'ozni sotish majburiyatini olishi mumkin;

Markaziy bank qo'shimcha tarzda ma'lum miqdordagi qimmatli qog'ozlarni taklif qilishi mumkin. Ochiq bozor siyosati bunday yo'sinda amalga oshirilganda davlatning qimmatli qog'ozlaridan keladigan daromadi ko'payadi. Buning natijasida kredit institutlarining Davlat qimmatli qog'ozlariga bo'lgan qiziqishi

ortadi, oqibatda tijorat banklarining kredit resurslari imkoniyati kamayadi va bank kreditining foiz stavkalari oshadi. Foiz stavkalarining shu yo'sinda o'sishi Markaziy bankni qoniqtirmasa, u yana qimmatli qog'ozlarni sotib olishi mumkin.

Markaziy bankning **depozit siyosati** - bu Markaziy bankning tijorat banklaridan yoki boshqa moliyaviy institutlardan qabul qilgan qisqa muddatli mablag'lari bo'yicha amalga oshiriladigan siyosatni anglatadi. Bu siyosat, asosan, pul massasi va inflyatsiyani boshqarish maqsadida qo'llaniladi. Depozit siyosati Markaziy bankning pul-kredit siyosatining bir qismi bo'lib, banklar o'rtasida likvidlikni boshqarish va bozor stavkalariga ta'sir qilishda muhim rol o'ynaydi.

Markaziy bankning depozit siyosatining asosiy vazifalari va tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. **Depozit operatsiyalari.** Markaziy bank tijorat banklariga qisqa muddatli depozitlarni taklif qiladi, ya'ni tijorat banklari o'z ortiqcha likvidliklarini Markaziy bankda saqlashlari mumkin. Bu operatsiyalar yordamida Markaziy bank pul-kredit sharoitlarini nazorat qiladi.
2. **Foiz stavkalarini belgilash.** Markaziy bank depozit stavkalarini belgilab, bozorda pul narxini (foiz stavkasini) boshqaradi. Bu orqali u inflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.
3. **Likvidlikni boshqarish.** Markaziy bank depozit siyosatini amalga oshirish orqali tijorat banklarining likvidlik holatini boshqaradi. Bu operatsiyalar banklarga kerakli miqdordagi pul mablag'larini taqdim etib, ularning kundalik faoliyatini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.
4. **Pul massasi va inflyatsiya nazorati.** Depozit siyosati orqali Markaziy bank pul massasi va inflyatsiyani boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Agar inflyatsiya yuqori bo'lsa, Markaziy bank depozit stavkalarini oshirishi, shu bilan birga banklarga likvidlikni saqlashni taklif qilishi mumkin.
5. **Qisqa muddatli operatsiyalar.** Markaziy bank depozitlarni qisqa muddatli operatsiyalar sifatida taklif qiladi. Bu tijorat banklariga faqat qisqa muddatda o'z ortiqcha pul mablag'larini saqlash imkoniyatini beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda yanada erkinlashtirish sharoitida shuningdek, bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq jarayonlarni boshqarishda, milliy valyutaning xalqaro mavqeini belgilashda va mamlakatning joriy hamda kelajakdagi iqtisodiy munosabatlari tizimida **valyuta siyosati** muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy valyuta va uning nomi milliy valyuta tizimining asosi bo'lib hisoblanadi, u qonun asosida davlatning pul birligi sifatida belgilanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishlatiladigan pullar valyutaga aylanadi.

Mamlakatda samarali to'lov tizimini ta'minlashda hisob-kitoblar tizimini tashkil etish va ta'minlash vazifasi Markaziy bankning muhim vazifalaridan biridir. To'lovlar O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Milliy valyuta tizimi mamlakat pul tizimining tarkibiy qismi bo'lib, valyuta munosabatlarining yig'indisi sifatida maydonga chiqmaydi, balki ushbu munosabatlarning faqat qonunchilik aktlari bilan tashkil etilish tartibini belgilaydi.

2-jadval.

Milliy valyutadagi bank depozitlari va kreditlari bo'yicha foiz stavkalar⁵

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025 (I chorak)
Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari o'rtacha	18,3	18,6	19,4	20,6	21,0	21,8	22,1
Yuridik shaxslarning muddatli depozitlari o'rtacha	15,9	15,8	15,7	16,7	17,2	17,2	16,7

⁵ <https://cbu.uz/uz/statistics/rates>

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar o'rtacha	26,9	23,6	21,8	22,6	23,6	24,5	24,0
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar o'rtacha	23,1	21,6	21,0	21,8	22,2	22,7	22,6

Markaziy bankning valyuta siyosati uning Valyuta siyosatining shakli va o'rni mamlakatning valyutaviy-iqtisodiy holati, jahon xo'jaligidagi evolyutsiyasi hamda o'rni bilan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan valyuta siyosati inflyatsiyaga qarshi siyosat olib borish yo'li bilan milliy valyutaning to'lov qobiliyatini mustahkamlashga, to'lovlar va hisob-kitob tizimini takomillashtirishga yo'naltiriladi.

Milliy valyutaning barqarorligiga xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning o'zgarishi bevosita kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning keskin oshishi, xorijiy valyutalar taklifi kamaymagan sharoitda ham, milliy valyutaning nominal almashuv kursiga nisbatan kuchli bosimni yuzaga keltiradi. Shu sababli, xorijiy valyutalarga bo'lgan talabning keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash jihatidan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Pul-kredit siyosati iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyasini boshqarish, va o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy vositalarni taqdim etadi. Har bir instrumentning o'ziga xos mexanizmi bor bo'lib, ular iqtisodiy tizimda muayyan ta'sirlarni yuzaga keltiradi.

Markaziy bankning o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar va global muammolarga moslashishi, o'zining iqtisodiy o'sish strategiyasini qo'llab-quvvatlash va inflyatsiyani boshqarishdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu

bilan birga, monetar siyosatning samaradorligini ta'minlash uchun barcha instrumentlarning uyg'un ishlashi kerak, chunki har bir vosita bir-biriga ta'sir ko'rsatib, umumiy iqtisodiy muhitga ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkazadi.

Shunday qilib, pul-kredit siyosati nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki inflyatsiya darajasini boshqarish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur vosita bo'lib xizmat qiladi. Markaziy bankning ushbu instrumentlardan foydalanishdagi muvaffaqiyati iqtisodiyotning umumiy holatiga bevosita ta'sir qiladi va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun ,uhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Yu. Rashidov, I.I. Alimov, I.R. Toymuhamedov, R.R. Tojiyev "Pul, kredit va banklar" darslik. Toshkent-2011;
2. М. С. Мара́мыгин, Е. Н. Проко́фьева, . М. П. Логинов, А. Е. Забо́ровская, Н. Н. Мо́кеева, В. А. Та́тьянников "ДЕНЬГИ, КРЕДИТ, БАНКИ" учебник. Издательство Уральского университета 2019 г.
3. Raximov X. Sh. "O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosat va uni amalga oshirish yo'llarini takomillashtirish" dissertatsiya, Toshkent-2015.
4. [http: //www.stat.uz](http://www.stat.uz);
5. <http://www.imv.uz>;
6. <http://www.cbu.uz>;